

O`SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR YUZAGA KELISHINI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Tohirova Dilafruz Baxtiyorovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani 31-son
ayrim fanlar chuqur o`qitiladigan sinflari
mavjud umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi

Annotatsiya: O`smirlarda agressivlikning shakllanishiga qator shaxs xususiyatlari ta`sir qiladi: tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o`z-o`ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste`mol qilish, kompyuter o`yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o`z-o`zini himoy qilish hislarining chegaralanganligi; xulqiy omillar: o`z vaqtini maqsadsiz o`tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o`zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo; ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta`siri, jamiyatlardagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o`zgarishi (o`gay ota, o`gay ona va hokazo); o`smirning xulqiy og`ishlar shakllangan do`stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o`rnatishi (taqlid fenomeni); ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o`smirning o`zlashtirishiga ota-ona tomonidan o`smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo`yilishi.

Kalit so`zlar: agressiya, frustratsiya, ijtimoiy vaziyat, destruktiv motivlashtirish, oila, emotsional tanglik, ruhiy rivojlanish bosqichlari

KIRISH

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo`lib, «aggređi» –«tajovuz qilmoq» ma`nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo`lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi. Shu bilan bir qatorda agressiyaga nisbatan ijobiy yondashuvlar ham mavjuddir. Jumladan, L.Bender agressiyani insonning o`z-o`zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta`kidlaydi. Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlarga ajratadi. Ixtiyoriy agressiya-insonning boshqa bir kishiga anglangan tarzda zarar yetkazishi hisoblanadi.

Instrumental agressiyada-inson o`z oldiga boshqaga zarar yetkazishni maqsad qilib qo`ymaydi. Bu agressiya yuzaga kelgan vaziyatni hal etishda boshqa usulni qo`llashga imkon bo`lmagan holda yuzaga keladi. R.Beron va D.Richardsonlar agressiyani qurbonga nisbatan maqsadli ravishda zarar yetkazishdir, deya ta`riflaganlar

Reaktiv agressiya-o'z hayoti, erkinligi, g'ururi, o'zining yoki boshqaning moddiy boyligini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar, istaklar frustrasiyasi namoyon bo'ladi: rashk va xudbinlik; qasos; Ishonchning yo'qolishi (hayotga, sevgiga, yaqin insonlariga).

Kompensatoragressiya–zo'ravonlik, destruktivlik hayotda o'zi uchun muhim bo'lgan dolzarb ehtiyojlar qondirilmasligi holatlarini kompensatsiya qilish:

Sadizm (boshqani o'z hukmi, irodasiga bo'ysundirish); nekrofiliya; surunkali zerikish va depressiya.

Verbalagressiya–salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish.

O'smirlik agressiyasi muammosi uzoq vaqt mobaynida yopiq bo'lgan mavzular sirasiga kiritilganligi bois, yetarli darajada o'rganilmagan

mavzulardan biri hisoblanadi. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G'.B.Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishga olib keladi. Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qolgan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi; shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish–pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi); o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish

«Terzitkompleksi»(kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi) O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi; o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi kattalar xatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda

oʻrnatilgan axloqiy meʼyorlarga nisbatan eʼtiroz hislarining shakllanishga olib keladi; ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi gʻoyasining oʻrnatilganligi, maktablardagi oʻquv sinflarning haddan ziyod toʻlaligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish). Agressiv xulqli oʻsmirlar odatda quyidagi hislarga ega boʻladilar: ular atrofdagilardan dushmanlik munosabatlarini kutadilar; oʻzlarining dushmanlik holatlarini yetarli darajada baholay olmaydilar; oʻzlarining muammolarida atrofdagilarni doimiy tarzda aybdor deb topadilar; muammoli vaziyatlarni hal etish usullari ularda chegaralangan; agressiv xulq ularning fikricha yaxshi natijalarga ega boʻlishni taʼminlaydi, yaʼni ularga nisbatan agressiyani chegaralaydi, degan fikrga egalar. Oʻsmirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari

1. Nosogʻlom oila muhiti. Baʼzi oilalarda ota-ona bilan farzand oʻziga tegishli munosabatning davolash muhitda emasligi, farzandlar oʻziga tegishli kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida oʻz tengqurlari, sinfdoshlari bilan boʻlgan munosabatda ham agressiv nazoratni oʻzlariga singdiradilar. Koʻpgina bolalar tengdosh doʻstlarining kiyimlarini kuzatgan holda oʻzlarini agressivga urinadilar. Haddan tashqari aggressive bolalar esa oʻztengdoshlari orasidan siqib chiqaradilar. Bunday bolalar oʻzini xoʻrlangandek his qilib, oʻzi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadi. Bu esa muammo muammo tugʻdiradi.

3. Ommaviy axborot

Bugungi kunda bolalarning agressivligini paydo boʻlishiga taʼsir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda koʻpchilik tomonidan eʼtirof etilmoqda. Shu oʻrinda jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, koʻrsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga taʼsir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning taʼsiri ham oʻziga hosligini inkor etib boʻlmaydigan haqiqatdir.

Agressiv xulq-atvorli oʻsmirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.

- a. Oʻziga ijobiy baho berishga oʻrnatish, xavfsizlikni tekshirish
- b. oʻzining va oʻzgalarning emotsiya va tuygʻularini anglashga oʻrgatish, diskriptiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash;
- d. oʻziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan gazabni tuzatish usullarga oʻrgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga oʻrgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish;
- e. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani boʻrttiruvchi jixozni belgilashga) oʻrnatish.

Oʻsmirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda tez-tez yuzaga keladi. Inson agressiyasi koʻrinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, ushbu xulq-atvorni oʻrganishda D. Bass tomonidan taklif qilingan konseptual ramkalar bilan

chegaralanish juda foydali bo'lishi bilan ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv vaziyatni uchta shkalaga sifatli holda tasvirlash mumkin. jismoniy verbal bo'lishi. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'ziga tegishli o'zaro munosabatlarning davolash sharoitida kasallikka chalinarli holdir.

Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi hislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan tasir o'tkazadilar O'z nazorat bu kabi xavfsizlik o'smirlarda agressiv xulq-atvorga zamin bo'ladi. Agressiyaning tomoshalarini oshirish. nizo chiqarish, o'tkazish majbur qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Agressiya boshqa tirik jonzo'tga buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon u yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi.

Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'diradi. "Agressiya" atamasi ko'p holatlarda g'azab kabi hodisalar, his-tuyg'ular, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurufot bilan assotsiatsiyalanadi. Agressiv xulqning kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga solish tajavuzkorlik, "autoagressiya" (bunday shaxsdagipatalogik o'zgarishlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi) deb belgilanadi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish **autoagressiya** ko'rinishidir. G'arbdagi ayrim mafkuraviy markazlar jahondagi yosh ishlab chiqarish yo'liga kirgan mamlakatlarga information usullarda tazyiq o'tkazish orqali o'zining agressiv xulqini namoyon qiladi.

XULOSA

Nizoli vaziyat hal etilganda jazolanish ham tugaydi. Bundan keyin o'smirlarga qilgan xatolarini ta'kidlash aslo mumkin emas. O'smir agressiyasini bartaraf etishning eng maqbul usuli kattalarning o'z-o'zlarini boshqara olishlari, sabr-toqat bilan o'smirlarga maqbul yo'llarni ko'rsata bilishlariga bog'liq. Bunday holatlarda birgalikda biror-bir faoliyatni bajarish tavsiya etiladi. Agar o'smir xatti-harakatlari atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirsa, u muayyan bir davr ichida o'zgarishlarga moyillik bildirmasa, psixiatruga murojaat etish zarur. Chunki bu holatlarda bosh miyadagi o'zgarishlar natijasida agressiya o'zini-o'zi nazorat qilishning yo'q olishi sindromining oqibati sifatida yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin.

FOYDALANILGANADABIYOTLARRO'YXATI:

1. Агрессия в подростковом возрасте. – Санкт-Петербург, «Питер», 2007.
2. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. / Перевод с англ. – М.: «Апрель Пресс», 2019

3. Bolalarga o`smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.- 112s
4. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308-311.

